

O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBALARI ASOSIDA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Beginqulova Maxfuza Abdunazarovna

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani

35-son DMTT direktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagoglar uchun o'quv, ijtimoiy va kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilashda mamlakatimiz uchun ham, umuman jahon hamjamiyati uchun ham katta qiziqish uyg'otayotgan ayrim fanlar bo'yicha pedagoglarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish asosida pedagog xodimlarni tayyorlash va ular bilan samarali ishlash tufayli yuqori pedagogik ta'lim jarayonlariga erishgan mamlakatlar tajribasi tahlil etiladi.

Аннотация. В данной статье на основе изучения потребностей педагогов по отдельным предметам, представляющим большой интерес для нашей страны и мирового сообщества, при определении перспектив развития системы образовательной, социальной и профессиональной поддержки педагогов, педагогическая Анализируется опыт стран, добившихся высокого уровня педагогического образования благодаря обучению и эффективной работе с ними.

Abstract. In this article, on the basis of the study of the needs of pedagogues in certain subjects that are of great interest to our country and the world community in determining the prospects for the development of the educational, social and professional support system for pedagogues, pedagogic staff the experience of countries that have achieved high pedagogical education processes due to training and effective work with them is analyzed.

Kalit so'zlar: pedagoglar, ta'lim sifati, xorij tajribasi, ta'lim, yutuqlar, Yevropa tajribasi, Fillandiya tajribasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish.

Ключевые слова: педагоги, качество образования, зарубежный опыт, образование, достижения, европейский опыт, финский опыт, совершенствование образовательного процесса.

Key words: pedagogues, quality of education, foreign experience, education, achievements, European experience, Finnish experience, improvement of educational process.

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloq qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- + ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;
- + kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;
- + kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, adaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- + ta'lim oluvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- + ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;
- + yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- + ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;
- + uzlusiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish;
- + kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirib borish ta'lim tizimiga salmoqli o'zgarishlarni olib kiradi .

Ta'limni boshqarish tizimlari. Menejmentning yakuniy maqsadi ta'lim, o'qitish va tadqiqotning yuqori darajasini ta'minlash, shuningdek, jamoaga xizmat ko'rsatish orqali oliy o'quv yurtlarining institutsional missiyasini kuchaytirishdan iborat bo'lishi kerak. Ushbu maqsad samarali boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lgan ijtimoiy muammolarni, shu jumladan global muammolarni tushunishni birlashtirgan etakchilikni talab qiladi. Ushbu masalalarni hal qilish mexanizmlarini ilg'or horijiy tajribalar asosida ishlab chiqish zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va ushbu ishning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi. Ta'limda ixtisoslashtirishning ilmiy asoslangan tizimi joriy qilinmaganligi, talim tarmoqlarida moddiy-texnik va innovatsiya tizimining talab darajasida emasligi, oliy ma'lumotli professional pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta'lim muassasalari (OTM)ning malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari bilan integratsion munosabatlaridagi muayyan muammolarning yuzaga kelishi natijasida xalq ta'limi tizimida ayrim fanlar (maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, rus tili va adabiyoti, ingliz tili, matematika, informatika va axborot texnologiyalari, kimyo, fizika va astronomiya) bo'yicha

o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj qondirilmay qolmoqda. Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini, xususan, pedagogikani jamiyatning yangi talablariga muvofiq, tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, umuman ta'lim paradigmasining o'zgarishi bilan isloh qilishga katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekistonda salohiyatli pedagogik ta'lim tizimi azaldan mavjud. Shu bilan birga o'zbek pedagogik ta'lim tizimining ijobiy jihatlaridan biri, O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanayotgan va mehnat bozorining barqaror bo'lмаган sharoitida pedagogika ta'lim yurti bitiruvchisi o'z kasbi bo'yicha faoliyat yuritmasa ham, shu diplom bilan boshqa sohada o'z faoliyatini davom ettira olish imkoniyati kengligidir. Chet el universitetlarida, shu jumladan, Amerika pedagogika oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining tor doiradagi mutaxassislari mehnat bozori ehtiyojlari va o'zgarishlariga moslashuvida hamda ayrim fanlar bo'yicha o'qituvchi-mutaxassislarni tayyorlashda muammolar paydo bo'lmoqda. Shunga ko'ra, O'zbekistonda pedagogika ta'lim yurtlari bitiruvchilarining umumiyligi va kasbiy malakasi yuqoriligi o'tish davri iqtisodiyoti uchun qulay bo'ldi. Yevropa mamlakatlarida maxsus pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari yo'q, biroq pedagogika institutlarini o'z ichiga olgan yirik universitetlar faoliyat yuritadi. Yevropa standartlariga ko'ra, ta'lim doirasida turli tarmoqlar va kasblar o'rtasida harakatlanishga imkoniyat k o'plab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari orqali ta'minlanadi va ular bo'lajak o'qituvchiga yetarli darajadagi malaka beradi. Finlyandiyaning pedagoglar tayyorlash tizimi ko'p mamlakatlar uchun na'muna bo'lib xizmat qiladi. O'tgan asrning oxirida o'qituvchilar uchun magistratura darajasi minimal talim me'yori deb belgilandi (shu jumladan, pedagoglar uchun ham), bu esa qaysidir darajada mamlakatdagi pedagoglar hurmatini va ijtimoiy maqomini oshirish uchun muhim hissa qo'shdi. Finlyandiyada maktab va maktabgacha ta'lim pedagoglari bo'lish uchun juda qattiq tanlovdan o'tish zarur: pedagogika mutaxassisliklarining eng yaxshi talaba-bitiruvchilari 12% atrofida maktablarga ishga olinadi. Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir ijobiy jihat, kichik guruhlarda o'qitishga ustuvorlik berilishi. Bu shubhasiz, ta'limning yuqori sifatda bo'lishiga olib keladi. Mamlakatda maktab ta'limining muvaffaqiyati maktab o'quvchilarini qo'llab-quvvatlash tizimi bilan ham bog'liq. Finlyandiyada jami iqtisodiyotda bandlar ulushida ijtimoiy ishchilar va psixologlar soni jihatidan, barcha Yevropa mamlakatlari orasida yetakchi o'rinnidan birini egallaydi.

Xitoy- dunyoda eng katta aholi soniga ega bo'lgan davlat bo'lganligi sababli ham hukumat qashshoqlikni kamaytirish maqsadida ta'lim tizimini rivojlantirish dasturini ishlab chiqqan. Olib borilgan islohotlar natijasida keyingi 10 yilliklarda Xitoy ta'lim tizimi katta yutuqlarga erishdi. XX asrning o'rtalariga qadar Xitoy iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan bo'lib, qo'l mehnatiga tayangan dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Aholining katta qismi qishloqlarda istiqomat qilgan va ta'limda ko'proq gumanitar fanlar falsafa, tarix va ijtimoiy sohalarga ustuvorlik berilgan. Xitoy

ta'lim tizimi asosan mактабгача ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va oliv ta'limdan iborat. Xitoy Xalq Respublikasining "Majburiy ta'lim to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi barcha uchun majburiy o'rta ta'lim tizimini shakllantirdi. Yangi qonunga ko'ra 9 yillik ta'lim majburiy va bepul qilib belgilandi. Xitoyda pedagogik ta'lim hozirda xalqaro darajaga etib bormoqda. Rossiya, Yaponiya va AQSh tajribasidan kelib chiqib, milliy an'analarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z tizimi yaratilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda Xitoyda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimning rivojlanishi boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha tez va jadallahsgan. Yo'naltiruvchi g'oyalardan biri kasbiy pedagogik kadrlar tayyorlashning iqtisodiyot va umuman jamiyat bilan aloqasini mustahkamlashga, urbanizatsiya va sanoatlashtirishga qaratildi. Mamlakatda pedagogik kadrlar tayyorlash ochiqligini oshirishga intilmoqda: mayjud ta'lim muassasalari negizida boshqa oliv o'quv yurtlari ishtirokidagi pedagogik ta'lim tizimi bosqichma-bosqich shakllanmoqda.

Amerika, Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlarida pedagogik kadrlar tayyorlashdagi umumi tendensiya pedagoglik kasbining nufuzini oshirish, kasbiy malakali pedagogni ish bilan ta'minlash va saqlab qolish, kadrlar siyosatini takomillashtirish, pedagoglarni o'z ustida ishslashga jalb etish, professional jamoalarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy kompetentlikni oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni yo'naltirishdan iboratdir.

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarning navbatdagi bosqichi ilg'or xorijiy tajriba asosida tor doiradagi mutaxasis-pedagoglarni tayyorlashga o'tish hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida tayyorlanadigan pedagogik kadrlarni har bir yo'nalish bo'yicha aniq ehtiyojlarni aniqlash asosida amalga oshirishni ob'ektiv zaruratga aylantiradi. I.D.Fruminning fikriga ko'ra, xorijiy mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasidan foydalanish yoki pedagogik kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik tizimini rivojlantirishning o'ziga xos usulini izlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637- son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida
5. Avesto. Asqar Mahkam o'zbekcha tarjima. -T.:2001. 56-bet